

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**TADQIQOT USULLARI VA KO'NIKMALARI  
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lism
Ta'lism sohasi:	110000 – Ta'lism
Ta'lism yo'nalishi:	60411200-Menejment

<b>Fan/modul kodi</b> <b>RESMS6</b>	<b>O‘quv yili</b> <b>2026-2027</b>	<b>Semestr</b> <b>8</b>	<b>ECTS - Kreditlar</b> <b>6</b>	
<b>Fan/modul turi</b> <b>Majburiy</b>	<b>Ta’lim tili</b> <b>O‘zbek/rus</b>		<b>Haftadagi dars soatlari</b> <b>6</b>	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Tadqiqot usullari va ko‘nikmalari</b>	90	90	180
<b>2.</b>	<p><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p><b>Fanning o‘qitishdagi maqsad</b> – bakalavr talabalarga ilmiy tadqiqotlarning asosiy tushunchalari, ta’riflari, usullari va bosqichlari haqida nazariy bilimlarni berish, ularni ilmiy tadqiqotlarni olib borish metodologiyasi, eksperimentlarni bajarish usullari, olingan natijalarini ishlab chiqish va tahlil etish metodlari, ularni rasmiylashtirish va amaliyotga tatbiq etish usullari bilan tanishtirishdan iboratdir.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – bakalavr talabalarda nazariy va tajribaviy tadqiqot o‘tkazish malakasini shakllantirish; tadqiqotda axborot va faktlar bilan ishslash texnologiyasini o‘zlashtirish; ilmiy tadqiqotni tashkil qilish, uni amalga oshirish rejalarini va bosqichlarini ishlab chiqishni o‘rganish; magistrantlarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish yo‘llarini bilib olish; ilmiy ijod qilish yo‘llari va mexanizmlarini o‘rganish; ilmiy tadqiqot olib borish sharti bo‘lgan tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllartirish. Bu tadqiqotchini o‘zi va boshqalar qo‘lga kiritgan natijalarni xolisona baholash imkoniyatni beradi. Ilmiy tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish qoidalari va talablarini bilish, amaliyotga joriy qilish va xulosalar chiqarishni o‘rgatishdan iborat.</p>			
<p><b>II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu.Tadqiqot usullari va ko‘nikmalari fani predmeti, maqsadi va vazifalari.</b></p> <p>Tadqiqot usullari va ko‘nikmalari fani predmeti, maqsadi va vazifalari, Tadqiqot metodologiyasi alohida fan sifatida ikkita funksiyani bajarishi: diskriptiv (ifodalovchi) va perskiptiv (me’yorlovchi). Birinchisi – ob’ektni nazariy jihatdan ifodalashni ko‘zlasa, keyingisi – tadqiqotchi uchun aniq mo‘ljal olishga shart-sharoit yaratishi, bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqazo etishi – nazariy va me’yoriy kabi tushunchalar singdiriladi.</p>				

## **2-mavzu. Pedagogik tadqiqotlar kategoriyalari.**

Pedagogika fani bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqot ishlarinig metodologik ta'minoti qator o'ziga xosliklariga egaligi; Metodologik ta'minoti manbasi tushunchasi tadqiqotchi uchun mo'ljal olishga imkon beruvchi va ierarxik mansublikka ega alohida turdag'i bilimlar yig'indisini anglatish; Tadqiqotchi uchun mo'ljal olishga yordam beruvchi birinchi metodologik manba falsafiy qoidalar va undagi metodologik funksiyalar, nazariya va amaliyot birligi haqidagi nazariya; Ana shu tarzda falsafa metodologik ta'minot manbalaridan biri sifatida namoyon bo'lishi haqida bilimlar tadbiq etiladi.

## **3-mavzu. Pedagogik tadqiqotning maqsad va vazifalari.**

Ilmiy tadqiqotda maqsad muhim o'r'in tutish; Ilmiy tadqiqot maqsadi izlanuvchining yaratuvchanlik tuyg'usi, fanning dolzarb muammosi, mavzuga doir axborotlarni aniqlanganligi, ijodiy ilhom, ilmiy til, muammoni yechimini bashorat qila olish kabi imkoniyatlar asosida umumlashtirilishi; Pedagogik tadqiqotning vazifalari haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.

## **4-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarda ilmiy dalillar va ularning roli.**

Ilmiy dalilning mantiqiy-gnoseologik mohiyati. Dalil deb haqiqatni tasdiqlovchi, inkor etib bo'lmaydigan narsa va hodisalar haqidagi bilimlar majmuasiga aytilishi; Dalilning asosan ikkita xususiyati borligi: hayotiy bo'lgan real voqealar, xususiyatlar, munosabatlar, bog'lanishlar, o'zgarishlar, jarayonlarni o'zida ifoda etishi; haqiqatni isbotlovchi fikrlarni to'laqonligini, inkor etib bo'lmasligini, reallikka mosligini qaror toptirishi to'g'risida ma'lumotlar bilan magistrlar tanishadi.

## **5-mavzu. Pedagogik tafakkur**

Tafakkurning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida; Tafakkur shakllari va turlari, uslublari; Tafakkurning tamoyillari va qonuniyatları; Tafakkur o'ziga xos shakllarda namoyon bo'lishi, ma'lum qonuniyatlarga asoslanishidan xabardor bo'ladilar.

## **6-mavzu. Pedagogik tadqiqot ob'ekti va predmeti, maqsad va vazifalari.**

Tadqiqot predmetini nima uchun aniq belgilab olish lozimligi; Predmening aniq belgilanishi tadqiqotchini noma'lum jihatlarni aniqlashtirish jarayonida behuda urinishlardan xalos etishi, chek-chegarasiz elementlar, xossalalar va munosabatlarga ega empirik obyektlar haqida yangi fikrlarni bayon etishga imkon berisi; Tadqiqot predmetining aniqlashtirilishi ilmiy izlanishning chegarasi va

vektorlarini o'rnatishni nazarda tutishi. Tadqiqot predmeti tadqiqotchidan yangi bilimlarni qo'lga kiritish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligini belgilab berishi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi.

### **7-mavzu. Pedagogik tadqiqot ob'ekti va predmeti, maqsad va vazifalari.**

Tadqiqot obyektini aniqlash jarayonida, nimani tadqiq qilinayotganligi, tadqiqotning yangi bilimlar qo'lga kiritiladigan mazkur jihatni tadqiqot predmetida aks etishi; Tadqiqot predmeti bu obyektni o'rganishining aniq jihatini o'zida ifodasi ekanligi.

### **8-mavzu. Pedagogik muammoni tanlash.**

Ilmiy tadqiqot muammoni qo'yishdan boshlanisi, falsafada muammo anglanish paytida obyektiv paydo bo'luvchi savol yoki savollar jamlanmasi majmui sifatida aniqlanishi, ularning yechimi muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatni o'zida aks ettirishi;

### **9-mavzu. Ilmiy tadqiqotlarning farazi**

Ilmiy faraz fan taraqqiyotining, yangi ixtirolarning muhim tarkibiy qismi ekanligi; Biror ilmiy ixtiro induksiya, oldindan bashoratsiz, tajribasiz amalgal oshmasligi; pedagogik tadqiqotda xatoga yo'l qo'ymaslik, natijani har tomonlama asosli bo'lishida ilmiy faraz alohida ahamiyatga egaligi; Ilmiy tadqiqot maqsadi, vazifasini aniqlangandan keyin eksperemintal (tajribalar) o'tkazish uchun muayyan ilmiy faraz bo'lishi, farazga har safar tayanish tadqiqot faoliyatining me'zoni ekanligi.

### **10-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarning umumiy tamoyillari.**

Ilmiy bilishda umumiy metodologiya va xususiy metodologik asos mavjudligi; Umumiy metodologiya falsafaning dialektik qonunlari, ilmiy bilish haqidagi ta'limotlar, jamiyat taraqqiyotning hozirgi davridagi konsepsiylar, milliy g'oya, mafkura bilan bog'liqligi.

### **11-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarning umumiy tamoyillari.**

Pedagogik tadqiqotlarning konkret-metodologik tamoyillari; Demokratik jamiyat qurish konsepsiysi har bir ijtimoiy fanning o'z qonunlaridan, predmetidan kelib chiqadigan xususiy, metodologiyani rivojlanishiga imkoniyat yaratishi; Avvalo, ilmiy pedagogik tadqiqotda shaxsiy yondashuv, faoliyatli yondashuv, polisubektli yondashuv, madaniy yondashuv, antropologik yondashuv, texnologik yondashuv kabi konsepsiylar yaratilisi

tadqiqotlarning umumiy tamoyillari ekanligi.

### **12-mavzu. Ilmiy izlanuvchining metodologik madaniyati**

Metodologik madaniyat – bu metodologik bilimlarga asoslangan ilmiy fikrlash madaniyati ekanligi, uning o‘zagi esa metodologik refleksiyani tashkil etishi; Pedagog-tadqiqotchining metodologik madaniyati – tadqiqotchining qadriyatlarni anglash, tizimli metodologik bilimlar, ilmiy izlanishning jarayoni va natijalarini loyihalashtirish, amalga oshirish va baholashning metodologik ko‘nikmalari, ilmiy muammoning adekvat echimini taqozo etadigan shaxsiy intellektual uslubni integratsiyalashni talab etuvchi kasbiy madaniyat komponenti ekanligi.

### **13-mavzu.Tadqiqot tajriba-sinovi dasturini tayyorlash**

Ilmiy tadqiqot dasturi tajriba-sinov ishlarini maqsadli, izchil amalga oshirish mazmuni belgilashi; Pedagogik tajriba-sinov dasturi mavzuning dolzarbligi, ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatini aniqlash, ilmiy farazning haqqoniyligini asoslash; Tadqiqot nazariyasining amalda sinab ko‘rish; tadqiqot ilmiy-amaliy imkoniyatini joriy etish, umumlashtirish; bir necha variantda har xil sharoitda tadqiqot natijasini tekshirib ko‘rish; matematik statistik tahlil qilish va baholash kabi yo‘nalishlardan iborat ekanligi.

### **14-mavzu. Tadqiqot metodini tasniflash**

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta’milanishi; Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyekti va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari ekanligi.

### **15-mavzu. Adabiyot va arxiv materiallarini o‘rganish**

Adabiyotlar va arxiv materiallarini o‘rganish. Ta’lim-tarbiya jarayonining tarixiylik, milliylik va umuminsoniylik qonuniyati pedagogik ilmiy tadqiqotlarning metodologik asosi, yo‘riqnomasi ekanligi; Faqatgina pedagogik merosni, ta’lim-tarbiya taraqqiyoti tarixini o‘rganish emas, pedagogik ilmiy tadqiqotning barcha yo‘nalishlari tarixiylik, milliylik va umuminsoniylik qonuniyatiga asoslanishi; Har bir masalaning rivojlanish bosqichlari bo‘yicha ilmiy, ommabop adabiyotlarni o‘rganmasdan tadqiqotni amalga oshirib bo‘lmasi to‘g’risidagi ma’lumotlar.

### **III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fani predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Redagogik muammoni tanlash va pedagogik tadqiqot mavzularini shakllantirish. pedagogik tadqiqotlarning dolzarbligini aniqlash.
3. Redagogik tadqiqotning maqsad va vazifalari.
4. Pedagogikaning obyekti va predmetini belgilash.
5. Pedagogikaning obyekti va predmetini belgilash.
6. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarini tasniflash muammolari.
7. Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va rasmiylashtirish qoidalari.
8. Ilmiy tadqiqotning farazi.
9. Tizimli funksional yondashuv.
10. Qiyosiy tahlil.
11. Ilmiy tadqiqotlarning farazi.
12. Pedagogik tadqiqotlarning umumiy tamoyillari.
13. Pedagogik tadqiqotlarning umumiy tamoyillari.
14. Ilmiy izlanuvchilarning metodologik madaniyati.
15. Adabiyot va arxiv materiallarini o‘rganish.
16. Tadqiqot muammo va vaziyatlarni fahmlash, ularning paydo bo‘lishini aniqlash, xususiyatlari va mazmunini ochib berish, universal hal qilish yo‘llari va vositalarini topishdan iborat faoliyat turi sifatida
17. Samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun menejmentdagi muammoli vaziyatlarni o‘rganishning o‘rn
18. Tadqiqot boshqaruv jarayonining boshlang‘ich bosqichlaridan biri Sifatida
19. Empirik tadqiqot usullari
20. Rasmiy-mantiqiy tadqiqot usullari
21. Tadqiqot jarayonida dalillar bilan ishlash bosqichlari
22. Ilmiy tadqiqot turlari
23. Aniq (maxsus) tadqiqot usullari tadqiqot ob’ektining o‘ziga xosligi, predmeti va vazifalarini aks ettiruvchi usullar sifatida
24. SWOT – tahlili usuli: mohiyati, qo‘llash sohalari, Kamchiliklari
25. Morfologik tahlil usuli
26. Tadqiqot dasturini shakllantirish
27. Tadqiqot maqsadlarini turkumlash
28. Tadqiqot samaradorligi tushunchasi va uni asosiy shakllantirish omillari .
29. Boshqaruv samaradorligiga ilmiy-metodologik yondashuvlar

## 30. Boshqaruvning tadqiqotchilik salohiyati

### **Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

**Mustaqil ta’limni baholash** – bu talabalarining jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo‘yilgan masalani o‘rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to‘liq ochib beriladi.

### **Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Ilmiy tadqiqot ishining asosiy tushunchalari. Ilmiy izlanish.
2. Ilmiy tadqiqot ishlarida modellashtirish.
3. Ilmiy tadqiqotlarning turlari (klassifikatsiyalanishi), strukturasi va bosqichlari.
4. Fanda ijod qilish. Ilmiy tadqiqotda ijodiy jarayon.
5. Ilmiy tadqiqot olib borishning mantiqiy sxemasi.
6. Ilmiy tadqiqot olib borishda ilmiy bilish usullaridan foydalanish.
7. Ilmiy muammo. Ilmiy tadqiqotning boshlang’ich asosi.
8. Ilmiy texnik muammo (masala), uni aniqlash, o‘rganish va yechimi bo‘yicha ilmiy gipotezani shakllantirish.
9. Ilmiy tadqiqotda axborot texnologiyalarining o’rni.
10. Nazariy tadqiqotlar olib borish metodologiyasi.
11. Metod, metodologiya, metodika tushunchalarining uzviyligi. Metod va uning ko’rinishlari.
12. Metodologik deduktsiya.
13. Eksperimental tadqiqotlarni rejalashtirish, o’tkazish va natijalari tahlili.
14. Ilmiy texnik va patent materiallaridan foydalanish, ixtiro va foydali modelga buyurtma rasmiylashtirish.
15. Ilmiy tadqiqotlarning joriy etilishi va samarasi.
16. Fan ijtimoiy madaniy faoliyt sifatida uning zamonaviy tahlil metodlari bilan tanishish.
17. Ilmiy tadqiqotning namoyon bo‘lish jihatni.
18. Ilmiy tadqiqot namoyon bo‘lish shakllari va startup loyihalarini o‘rganish.
19. Fanlarning sinflanishi, UO’K (UDK) tizimi, oliy ta’lim yo’nalishlari va

	<p>mutaxassisliklari klassifikatori o‘rganish.</p> <p>20. Ilmiy tadqiqotda muammo, muammoli vaziyat va dalillarning o‘rni.</p> <p>21. Magistrlik dissertatsiyasini himoyaga tayyorlash qoidalari, olimning professional va ijtimoiy mas’uliyati.</p> <p>22. Scopus, Science Direct, Mendeley va boshqa tizimlarini o‘rganish.</p> <p>23. Adabiyotlar va arxiv materiallarini o‘rganish, kuzatish, suhbat, so‘rov, test, eksperiment - empirik tadqiqot metodlari sifatida.</p> <p>24. Pedagogik ilmiy-tadqiqot samaradorligini aniqlash mezonlari.</p> <p>25. Fundamental, amaliy va innovatsion pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari.</p> <p>26. Ta’limda innovatsion jarayonlar tendensiyalari va qonunlari.</p> <p>27. Ta’limda modernizatsiya va eksperiment.</p> <p>28. Pedagogik innovatsion texnologiyalar.</p> <p>29. Kompetensiyaviy yondashuv. Shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalar.</p> <p>30. Modulli ta’lim texnologiyasi.</p> <p>31. O’yinli ta’lim texnologiyasi</p> <p>32. Pedagoglarning yangiliklar kiritishga munosabati. Innovatsiya subyektlari tasnifi.</p> <p>33. Pedagog-novatorning ijodiy o’zini-o’zini rivojlantirish omillari.</p> <p>34. Ta’limiy faoliyatning zamonaviy metodikasi va texnologiyasini ishlab chiqishga qo’yiladigan talablar.</p> <p>35. Ta’lim texnologiyalarini loyihalash algoritmi.</p> <p>36. Pedagogik innovatsiyalarni boshqarish tamoyillari.</p> <p>37. Innovatsion pedagogik jarayon tizim sifatida.</p> <p>38. Ta’limdagи yangiliklarning asosiy yo’nalishlari.</p> <p>39. Rivojlantiruvchi ta’lim muhitini loyihalash.</p> <p>40. O’qituvchi tadqiqotchi sifatida.</p> <p>41. Ta’lim-tarbiya jarayonida o’qituvchining innovatsion faoliyati.</p> <p>42. Innovatsion ta’lim: strategiya va amaliyot.</p> <p>43. Pedagogik faoliyat ijodiy jarayon sifatida.</p> <p>44. Xorijiy pedagogik izlanishlarda o’qitishning innovatsion modellari.</p> <p>45. Ta’limda innovatsion jarayonlar tendensiyalari va qonunlari.</p>
3.	<p><b>VII. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</b></p> <p>“Tadqiqot usullari va ko’nikmalari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Fanining predmeti. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi vazifalari va ahamiyatini o’rganadi, Ilmiy tadqiqot metodi va</li> </ul>

	<p>metodologiyasi tushunchasini, Ilmiy tadqiqotlarning umumiy, umumilmiy, xususiy va maxsus ilmiy tadqiqot metodlarini bilishi kerak;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Ilmiy muammo va ilmiy mavzu. Ilmiy-texnikaviy axborotni izlash. Ilmiy tadqiqot ishlarining turlari. Ilmiy natijalarni nashrga tayyorlash. ega bo‘lishlari kerak;</li> <li>– Ilmiy tadqiqot metodlari. Ilmiy tadqiqotda muammo, muammoli vaziyat va dalillarning o‘rni, Eksperimentlarni o’tkazish. Tadqiqot ishini himoyaga tayyorlash qoidalari, olimning professional va ijtimoiy mas’uliyati bo‘lishi kerak.</li> </ul>
4.	<p><b>VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar</li> </ul>
5.	<p><b>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p><b>X. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. «O’zbekiston Respublikasi prezidentining 7 fevral 2017 yildagi № UP4947 «O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategiyasi» <a href="http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=310704">http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=310704</a> .</li> <li>2. N.A. Shermuhamedova. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. –T.: «Fan va texnologiya», 2014, 464 bet.</li> <li>3. Saifnazarov I., Karimov T., Nikitchenko G.V. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Toshkent, TDIU, 2004 y..</li> <li>4. A.Egamberdiyev. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi (Magistraturaning barcha ta’lim yo’nalishlari uchun) O’quv-uslubiy majmua. Andijon – 2019. 284 bet..</li> <li>5. To‘raqulov X.A., Hasanboyev J.J., Usmanov N.O., Alqarov I.Sh., To‘raqulov O.X. Ilmiy tadqiqot asoslari. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2011.</li> </ol>

## XI. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir (o'zbek va rus tillarida) 2018 y
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016..
3. Choriyev A., Choriyev I. Pedagogikaning fanlararo bog'liqlik metodologiyasi. – T.: Fan, 2011.
4. Choriyev A., Choriyev I. Pedagogika tarixi metodologiyasi. – T.: Fan, 2011
5. Saifnazarov I., Nikitchenko G.V., Qosimov B.U. Ilmiy ijod metodologiyasi. O'quv qo'llanmasi - Toshkent: Yangi asr avlod, 2004 Yo'ldoshev N.Q., Rashidov J.X. Menejment tadqiqot usllari.-Toshkent.2020

### Axborot manbalari

<http://www.edu.uz>–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalar vazirligi sayti.

<http://www.uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.

<http://www.gov.uz>– O'zbekiston Respublikasi xukumati portalı.

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.cspl.uz](http://www.cspl.uz)

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)

[www.natlib.uz](http://www.natlib.uz) (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)

[www.zyonet.uz](http://www.zyonet.uz) - Ziyonet axborot-ta'limgazalar resurslari portalı

- |    |  |
|----|--|
| 7. | Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “ <u>29</u> ” <u>08</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan |
| 8. | Fan/modul uchun ma'sul:<br>I.X.Xakimova – CHDPU, Maktab menejmenti kafedrasи o'qituvchisi  |
| 9. | Taqriban:  |
|    | Rasulov A.N. p.f.f.d. (PhD) CHDPU "Maktab menejmenti" kaf. mudiri<br>B.Sh. Shodmonov – TMI "Iqtisodiy xavfsizlik" kafedrasи v.b, dotsenti, i.f.n.              |